

DUNYODAGI BIRINCHI APTEKA.

Fayziyev Jahonjon Furqatovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Pediatria ishi yo'nalishi, 101 guruh talabasi

Beknazarova M.K.

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Tillar kafedrasida assistent o'qituvchisi

Annotasiya: Insoniyat yaralibdikim sog'lom va nosog'lom holatlarga tushadi. Issiq jonning isitmasini insonlar qachondan boshlab davolab boshlaganlar. Ular ilk marta shifobaxsh o'simliklarga ehtiyojlarini qay tarzda sezganlar. O'simliklardan dori tayyorlash qaysi davrlarda va qaysi davlatlarda ilk bora ish boshlangan ekan. Mana bu savollarga javob axtarish uchun tarixga nazar solsak. Dorivor o'simliklardan inson salomatligini tiklash uchun foydalanish kurra zaminimizning qaysi qitasida ish ilk bora boshlangan ekanligini bilgimiz keldi. Duniyodagi birinchi aptekalarchi?

Kalit so'zlar: Qadimgi Misr va Yunoniston, ilk paydo bo'lgan apteka, dorivor o'simliklar, miloddan avvalgi asrlar, dori tayyorlash va saqlash, qadimgi grek shifokorlari.

Annotation: Humanity plunges into a healthy and unhealthy state when it is created. The fever of the hot soul has been cured by people ever since. This is how they first felt their need for medicinal plants. In what era and in which countries did the preparation of herbal medicines first begin? Let's look into history to find the answers. The use of medicinal plants to restore human health has allowed us to find out on which continent the work on our earth first began. The first pharmacist at heart?

Keywords: Ancient Egypt and Greece, the first pharmacy, medicinal plants, centuries BC, procurement and storage of medicines, ancient Greek doctors.

Kirish. Duniyodagi ilk dorixonalar qadimgi ilk rivojlanish davrlariga borib taqaladi. Birinchi dorixonaning qachon paydo bo'lgan vaqti sanasigacha aniq ma'lumoti yo'q, chunki apteka tushunchasi va uning faoliyati turli davrlarda o'zgarib turgan. Tarixiy manba'larga ko'ra ilk apteka o'zining hozirgi ko'rinishida ilk bor Misrda va keyinchalik Gresiya va Rimda faoliyat yuritgan.

Asosiy qism. Avvalambor dorishunoslik shifobaxsh o'simliklar asosida tayyorlangan va bu bilan shug'ullanadigan maxsus ixtisoslashgan shifokorlar ish yuritishgan. Ular maxsus ish yuritish, ya'ni dorini tayyorlash, saqlash va tashishga muljallangan joylarda o'z faoliyatlarini olib borganlar. Aynan shu joylar zamonaviy aptekalarning chizmasi rolini o'ynagan bo'lsa ajab emas. Bu joylar dastavval Misrda miloddan avvalgi 1500-2000 yillarda uchragan. So'ngra aptekalar miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Gretsiyada faoliyat boshlagan. Gretsiyaning mashhur shifokorlari, masalan,

Gippokrat, dorilarni tayyorlash, saqlash va tashish uchun maxsus joylarda faoliyat ko'rsatishgan. Bu joylar zamonaviy aptekalarning

dastlabki shakllariga o'xshardi. Usha davrlardayoq tibbiy mutaxassislar tomonidan boshqarilgan va dorilarni tayyorlash va saqlashda muhim rol o'ynaganlar.

Rimda esa aptekalar boshqa joylardagiga qaraganda zamonaviyroq shaklda, ixtisoslashgan muassasalarga aylangan holda tashkil etildi. Rimda aptekalar dorilarni tayyorlash va tarqatishdan tashqari, bemorlarga tibbiy maslahatlarni ham amalga oshirgan. Aynan Rimda dorilarni maxsus yuriqnoma, a'yuniy retsept bilan berish yo'lga qo'yilgan.

Avvalam bor shifobaxsh o'simliklardan dori tayyorlash va ularni saqlash bilan monastirlarda shug'ullanishgan. Bu davrda aptekalar monastirning bir qismi sifatida ishlagan.

XVI-XVII- asrlarga kelib zamonaviy aptekalar o'z ishlarini boshlashgan. Misol uchun Drezdenda 1240-yilda birinchi zamonaviy apteka tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Bugungi kunda aptekalar faqat dorilarni sotish emas, balki ularni tayyorlash, retseptlar bo'yicha dori-darmonlarni chiqarish, shifokorlar bilan maslahatlashuvlar va ba'zi holatlarda tibbiy xizmatlarni ham taqdim etadi. Aptekalar dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimining muhim qismi sifatida xizmat qiladi.

Aptekalarning faoliyati farmatsevtika sanoati rivojlangach boshqacha shaklga kirdi. Farmatsevtika sanoatida dorilarga shakl berish va ularni qadoqlash, dozalarini standartlash boshlangach, aptekalarning ishi ancha osonlashdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dorilarga shakl berish tabletkalar, drajelar, sharbatlar, ekstraktlar, malhamlar, surtmalar, shamcha v.h.k larning farmatsevtik zavodlar tomonidan amalga oshirilishi farmatsiya sohasida ham, apteka savdosida ham hamda kasalxonalarda ham bemorlarni davolash ishlari yaxshilanib borishiga katta turtki bo'ldi. Bu holat dorilarni tashish, ta'sirini oshirish va bemorga qulaylik yaratish maqsadida amalga oshirildi. Ularni qadoqlash ishlari ham yildan-yilga yaxshilanib bordi va bu ham o'z navbatida dorining sifati, istemolchiga yetib borgunicha tarkibi va ta'sirini saqlashni yaxshilashga sabab bo'ldi.

Dorilarga shakl berishning dastlabki amaliyoti qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bunday dorilar asosan o'simlik va mineral moddalar aralashmasi bo'lib, ularni yuzaga chiqarish uchun turli usullar, masalan, kukun shaklida yoki suyuqliklar shaklida tayyorlangan. Dorilarga shakl berish ilmiy asoslar bilan olib borilgan, chunki 16-17-asrlarda farmatsevtika Evropada taraqqiy eta boshlagan edi. Dorilarni kukun, sharbat, yig'ma shaklda ishlatish usullari ishlab chiqilgan va amaliyotga taqdim etilgan edi.

!9-asrda farmatsevtika sanoatida va ilm-fan rivojlanishida katta o'zgarishlar ro'y berdi. 1800-yilda ilk tabletkalar va kapsulalar ishlab chiqildi. Shakl berish

texnologiyalari ilmiy asosda rivojlana boshladi va dorilarni ishlab chiqarish jarayonida mashinalar va uskunalar keng qo'llanildi. 20-asr: 1900-yillarning boshlarida farmatsevtika sanoati yanada rivojlandi. Dorilarni ishlab chiqarish va shakl berish usullari (masalan, tabletka, kapsula, ko'piklar) keng tarqaldi. O'sha davrda dorilarni bir xil shaklda va sifatda ishlab chiqarish uchun yanada murakkab texnologiyalar joriy etildi.

Shu tariqa, dorilarga shakl berish jarayoni tarixan rivojlanib, bugungi kunda turli shakllarda dorilarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aitmuratova, P., Yorova, S., & Esanova, M. (2023). The role of foreign languages in our life. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 161-164.
2. Mardanovich, M. Z., Aliaskarovna, S. U., Kenjaevna, B. M., Genjebaevna, A. P., & Salimovich, S. B. (2021). Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(4), 5341-5352.
3. Beknazarova Moxiya Kenjayevna. (2024). LOTIN TILINI O'QITISH JARAYONIDA KLINIK KAFEDRALAR BILAN INTEGRATSIYALASHTIRILGAN MASHG'ULOTLARNING MAQSADLI YO'NALTIRILISHIDAGI NATIJALAR . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 49–52. Retrieved from <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/5809>
4. Айтмуратова Перхан Генжебаевна. (2024). ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЯ БОЛЕЗНЕЙ В ЛЕКСИКО-ТЕКСТОВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 43–48. Retrieved from <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/5808>
5. Beknazarova Moxiya Kenjayevna. (2024). LOTIN-YUNON TILLARINING DUNYO MADANIYATIDAGI O'RNI . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 53–55. Retrieved from <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/5810>
6. Бекназарова М.К. (2024). ОПРОС-КАК МЕТОД ПОВЕШЕНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 56–59. Retrieved from <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/5811>
7. Beknazarova M.K. (2025). DORIVOR O'SIMLIKLAR DUNYOSI VA ULAR BILAN BOG'LIQ AFSONALAR . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 37(1), 30-34. <https://scientific-jl.org/tal/article/view/9286>
8. Beknazarova M.K. (2025). RIMNING ILK SHOIR VA ADIBLARI . [TADQIQOTLAR.UZ](https://scientific-jl.org/tad/article/view/9329), 53(4), 136-138. <https://scientific-jl.org/tad/article/view/9329>